

## BUGALTERIYA HISOBINING TAMOYILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10618142>

**Turdimuratov Bobomurod Ulug‘bek o‘g‘li**

*Toshkent moliya instituti*

*Buxgalteriya hisobi va audit*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining ahamiyati sifatida xo‘jalik yurituvchi subektlarda hisob tizimining naqadar to‘g‘ri yuritilishi, Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, Boshqaruvo hisobi ma‘lumotlarida ma‘lumotlarni tez olish, o‘qish va ulardan foydalanish haqida so‘z boradi.

### **Kalit so‘zlar**

*buxgaltriya, boshqaruvo, tizim, integratsiya, sarmoya, foydalanish, tarmoq, korxonona.*

### **Аннотация**

В данной статье по мере значимости ведения бухгалтерского учета, того, насколько правильно ведется система бухгалтерского учета в хозяйственных субъектах, расширяется круг пользователей бухгалтерского учета, идут вопросы быстрого получения, считывания и использования информации в управленческом учете.

### **Ключевые слова**

*учет, управление, система, интеграция, инвестиции, использование, сеть, предприятие.*

### **Abstract**

*In this article, as the importance of accounting, how correctly the accounting system is maintained in business entities, the range of users of accounting is expanding, questions about quick acquisition, reading and use of information in management accounting information. will go.*

### **Key words**

*accounting, management, system, integration, investment, use, network, enterprise.*

Iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, buxgalteriya hisobi borasida ham ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Keyingi yillar mobaynida halqaro standartlarga to‘la-to‘kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko‘pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo‘shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya

bozoriga chiqilayotganligi sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni yanada qattiqroq talab qilmoqda.

Har qanday jamiyatni rivojlanishi uni boshqarishni taqozo etadi. Boshqarish, o'z navbatida, jamiyatning turli tarmoq va sohalarida yuz bergan va berayotgan jarayonlar, xo'jalik faoliyatini olib borayotgan sub'ektlarning mablag'lari, ularni tashkil etish manbalari, erishayotgan natijalari va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarni mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bunday axborotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi vosita bo'lib xo'jalik hisobi hisoblanadi

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish sharoitida turli mulkchilikka asoslangan tashkiliy-iqtisodiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ko'plab xo'jalik yurituvchi subektlarning paydo bo'lishiga zamin yaratildi. SHu munosabat bilan xo'jalik yurituvchi subektlarda buxgalteriya hisobning to'g'ri yo'lga qo'yilishi va uning ustidan nazoratning samarali mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xususan, buxgalteriya hisobining ahamiyati sifatida xo'jalik yurituvchi subektlarda hisob tizimining naqadar to'g'ri yuritilishi, xo'jalikning iqtisodiy moliyaviy faoliyatini o'rganish va uning holatiga xolisona baho berish, shuningdek iqtisodiy ko'rsatkichlarning samaradorligini aniqlash hamda nazoratini o'rganish bugungi kunda talaba yoshlarga muhim dastur vazifasini o'taydi.

Buxgalteriya tamoyillari, nomidan ko'rinib turibdiki, **buxgalteriya hisobida kuzatilishi kerak bo'lgan qoidalar**. Ya'ni, biz kompaniyalar (bu normal holat) yoki buxgalteriya hisobi bilan shug'ullanadigan boshqa narsalar (masalan,) moliyaviy holati, aktivlari va buxgalteriya hisobi natijalarini ishonchli ko'rsatishi uchun hurmat qilinishi kerak bo'lgan asosiy qoidalar haqida gapiramiz. Aytish kerakki, buxgalteriya hisobi tamoyillarini 100% tushunish oson emas. Bu aslida aytilganidan ancha murakkabroq. Shuning uchun biz ularning har birini iloji boricha tushuntirishga harakat qilamiz.

*Buxgalteriya hisobi* - iqtisodiy fanlardan biri bo'lib, uning nazariyasi buxgalteriya hisobini tashkil etish texnikasi, predmeti va usulini o'rgatadi. Korxonalar, muassasalarda yuritiladigan buxgalteriya hisobi «O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuniga asoslanib olib boriladi. Hozirgi kunda *buhgalteriya hisobi* 3 ta yo'nalishda o'rganiladi:

- 1.Moliyaviy hisob
- 2.Boshqaruv hisobi

### 3.Soliq hisobi

Boshqaruv hisobi o'zida shunday hisob ma'lumotlarini jamlaydiki, bu ma'lumotlar faqat korxonaning o'zida boshqaruv uchun zarurdir. Boshqaruv hisobi ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarxni kalkulyatsiya qilish bilan birga, u mavjud holatni tahlil etish, qaror qabul qilish, kompyuterlar va texnologik dasturlardan foydalanish, resurslardan foydalanish va tannarxning shakllanishini boshqarish, xarajatlarning me'yordan chetga chiqishini tahlil etish va boshqalarni qamrab oladi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlarida ma'lumotlarni tez olish, o'qish va ulardan foydalanib, operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati bo'lishi kerak. Moliyaviy hisob shunday ma'lumotlarni o'zida mujassam etadiki, ushbu ma'lumotlar nafaqat korxonada faoliyatiga rahbarlik qilishda foydalaniladi, balki tashqi foydalanuvchilarga ham tegishli ma'lumotlar taqdim qilinadi. Moliyaviy hisob axborotlarni umumlashtirish va sintez qilishga yo'naltirilgan. U ba'zi bir davr uchun korxonada foydasini tezkor aniqlashga, korxonaning aktivlari va passivlarini hisobot balansida umumlashtirishga, korxonaning mulkiy va moliyaviy holatini ta'riflashga imkon beradi. Soliqlar hisobi korxonada, tashkilot va muassasalarda soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida va to'g'ri hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo'llash hamda ularni o'z vaqtida byudjetga o'tkazilib borilishini ta'minlab beruvchi buxgalteriya hisobi turidir. Soliq hisobi o'z usullari yordamida soliq va yig'implar, ularning obyekti, subyektlari va soliqqa tortish bazasini, to'lash muddatlarini aniqlab beradi.

*Buxgalteriya hisobi asosan qo'yidagi funktsiyalarni bajaradi:*

- a) xalq xo'jalik hisobi tarmoqlari korxonada, tashkilot va muassasalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;
- b) kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;
- v) korxonada, tashkilot, muassasa xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini mahsus hujjatlarda qayd etish;
- g) maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy - xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»
2. A.A.Karimov va boshqalar "Buxgalteriya hisobi". Darslik. -T.: "Sharq" NMAK, 2004-y.

3. K.B.Urazov “Buxgalteriya hisobi va audit”. O`quv qo`llanma. -T.: “Oqituvchi”, 2004-y.

4. I.K.Ochilov, J.E.Qurbonboyev “Moliyaviy hisob”. O`quv qo`llanma. -T.: “IQTISOD -MOLIYA”, 2007-y.

5. O`zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari to`plami. -T.: 2010 -y